

## ABU NASR FOROBIY VA UNING MILLIY MUSIQA MEROSIDAGI O'RNI

**Yusupjonova Dilfuzaxon Olimjon qizi**

Farg'onan davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti

“Vokal va cholg'u ijrochiligi” kafedrası

3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada buyuk allommamiz, qomusiy olimimiz Abu Nasr Forobiy haqida so'z yuritiladi hamda uning asariga qisqacha ta'rif berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** alloma, olim, Abu Nasr Forobiy, maqom, cholg'u, musiqa, qonun, nota.

Inson borlig'ini, ma'naviy taraqqiyotini musiqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik san'atining boy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabit etishga muvaffaq bo'lganlar. Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa kitobi", Abu Hamid G'azzoliyning "Diniy bilimlarning tilishi" asarlarida, Hazrat Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning qator asarlarida ilgari surilgan inson kamoloti to'g'risidagi ilg'or g'oyalari bugungi kunda g'oyat qimmatli va ibratli ma'lumotlardir.

**Abu Nasr Farobiy.** Buyuk faylasuf olim, o'rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri Abu Nasr Muhammad Farobiy 873-yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug'ilib, 950-yilda vafot etgan. U O'rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo'lib, dastlabki ma'lumotni o'z ona shahrida oladi. Durustgina bilim egasi bo'lgan Farobiy Bag'dod, Damashq shaharlariga, so'ngra Misrga boradi va u yerlarda o'z ma'lumotini oshiradi.

Farobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U o'z davrida mavjud hamma musiqa cholg'ularida chalardi. Ayniqsa, kuylarni nay va tanbur cholg'ularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Farobiy qonun cholg'usini ixtiro etgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan. Buyuk olim falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo'yicha teran ilmiy asarlar yaratgan. Zamona sining yetakchi olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanardi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Risolalar. Toshkent-1975.

Abu Nasr Farobi o‘zining musiqaga bag‘ishlagan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari “Kitabul musiqiy al-kabir” (“Musiqa doir katta kitob”), “Kalam fil-musiqa” (“Musiqa haqida so‘z”), “Kitabul musiqa” (“Musiqa kitobi”), “Kitabun fi-ihsail-ulum” (“Fanlar tasnifiga doir kitob”) ning musiqaga bag‘ishlangan qismi, “Kitabun fi ihsail-iqo‘” (“Musiqa ritmlari iqo‘ tasnifi haqida kitob”) va boshqalardir.

Farobiyning musiqa asarlari orasida “Kitabul-musiqiy al-kabir” alohida diqqatga sazovordir. Bu kitob mashhur sharqshunos olim D’Erlanje tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib “Arab musiqasi” turkumida nashr etilgan. Asar muqaddima va uch qism kitobdan iborat.

Muqaddima qismida muallif kuy ta’rifi, musiqaning nazariy va amaliy masalalari, kuyning paydo bo‘lishi, musiqa janrlari, cholg‘ular, kuylarning ta’rifi, kuylarning ijrosi, intervallar, tovushqatorlar, konsonanslar va dissonanslar haqida, umuman olganda, musiqa nazariyasi haqida yozgan.

Birinchi kitobda musiqaviy akustika, nag‘ma (tovush) lar nisbati, intervallarning turlari, ularni hosil etilish qoidalari, ritmlar va boshqa masalalar sharhlab beriladi.

Ikkinci kitobda ud, tanbur, nay, rubob kabi sozlar, ularning pardalari, torlari va diapazoni haqida gap boradi.

Uchinchi kitob kuylar va maqomlarni hosil etish, ritm, cholg‘u va vokal musiqa, kuy bezaklari va boshqa masalalarga bag‘ishlanadi.

Maqomlar masalasini yoritishda, ayniqsa, uchinchi bo‘lim muhimdir.

Bu o‘rinda lad (maqom) larning tashkil etadigan qismlari tetraxord va pentaxordlarning turlari, maqomotning juda ko‘p xillari, uning sho‘balari keltirilgan.

Shuni alohida aytish kerakki, Abu Nasr Farobi o‘zining bu o‘lmas asarida Sharqda nota yozuvining vujudga kelishida chuqur zamin hozirlab bergan edi. Binobarin, kuylarning parda asosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan lad (maqom) yozuv namunalarini ixtiro etdi va harfiy belgilar vositasi bilan yozib qoldirdi.<sup>1</sup>

Vokalizlarni eslatuvchi bu kuy namunalari o‘z harakati bilan zamonasida mavjud musiqa asari, shu bilan birga maqom uslubidagi musiqa asarlari yo‘llarini ham ifodalaydi. Farobiyning jadvali o‘sha zamonlarda musiqa madaniyatining yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Jadval musiqa nazariyasining amaliyotda qo‘llanishning yuksak namunasidir. Unda keltirilgan tovushqator namunalarining murakkabligi Farobi zamonda ijro texnikasining ham yuksak bo‘lganligini bildiradi.

Abu Nasr Farobiyning musiqa risolalarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi. X-XI asrlarda mashhur bo‘lgan maqomlarni o‘rganishda uning asarlari yagona manba bo‘lib xizmat qilgan.

<sup>1</sup> “Sharq nota yozushi haqida” qismiga qarang

Bu o'rinda Farobiyning o'tmishdoshi, ulug' tabib va olim Abu Bakr Muhammad bin Zakariy ar-Roziy (855-yilda Rayda tavallud topgan) haqida ham eslatib o'tish lozim. Ar-Roziy Sharq fani va madaniyati tarixida yuksak rol o'ynagan edi. U yoshligida ud sozini chalishni mashq qilgan, ashula aytishni ham sevardi. Lekin Roziyning musiqaga doir asar yozgani to'g'risida ma'lumot bo'lmasa-da, uning turli fan sohalariga oid kitoblari orasida "San'at haqida o'n ikki kitob", "Al isno ashara kitoban fis-san'ati"<sup>1</sup> asari ham bo'lgan. Bu kitoblarning biri musiqa nazariyasidan bahs etgan bo'lishi mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qomusiy olimning asarlari o'zbek tilida chop etila boshladи, uning boy merosi xolisona, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida yoritila boshlandi. Oliy o'quv yurtlari, mакtab va kutubxonalar, ko'chala uning nomi bilan atala boshladи.<sup>2</sup>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Risolalar. Toshkent-1975.
2. Is'hoq Rajabov. Maqomlar. "San'at". Toshkent. 2006-yil B-15
3. "Sharq nota yozuvi haqida" qismiga qarang
4. Qomus ul-A'lam. 1-jild. 1906-1908. B-693-696
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent-2000.
6. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. In Archive of Conferences (pp. 44-48).
7. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 1(1), 196-199.
8. Murodova, D. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРДА БАДИЙ-ЭСТЕТИК БИЛИМ ВА КҮНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. Science and innovation, 1(B6), 702-707.
9. Murodova, D. R. Q. (2023). BO 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 644-649.
10. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(05), 245-250.
11. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).

<sup>1</sup> Qomus ul-A'lam. 1-jild. 1906-1908. B-693-696

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent-2000.

12. Nasretdinova, M., Toshaliyev, D., & Murodova, D. R. Q. (2022). AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATINING HOZIRGI DAVR MUAMMOLARI. Scientific progress, 3(2), 846-850.
13. Муродова, Д. (2023). БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Актуальные проблемы гуманитарных и социальных наук., 3(S/4), 434-438.
14. Муродова, Д. (2023). FANLARARO HAMKORLIKDA BO 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI. Наука и инновация, 1(7), 137-140.
15. Муродова, Д. (2023). BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI VA UNI SAMARADORLIK DARAJASI. Наука и инновация, 1(7), 134-136.
16. Муродова, Д. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ. Наука и инновации, 2(B5), 426-430.
17. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
18. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 254-266.
19. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
20. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
21. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. Gospodarka i Innowacje., 34, 494-498.

22. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje., 34, 485-489.
23. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 320-325.
24. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. Science and Innovation, 1(4), 23-28.
25. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). Science and Innovation, 1(4), 29-33.
26. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 87-89.
27. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 265-275.
28. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИКИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). Science and innovation, 1(C4), 29-33.
29. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).
30. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 344-352.
31. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456-5083
32. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, 11(01), 55-58.